THE ISSUE OF INTRODUCING A COMPENSATORY INTEREST PAYMENT MECHANISM FOR THE REFUND OF OVERPAID OR COLLECTED CUSTOMS PAYMENTS

Alisher Abduraimovich Uzoqov
senior lecturer at the Customs Institute
of the Customs Committee under the Ministry of Economy
and Finance of the Republic of Uzbekistan
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.23074667

Abstract. The article examines the current legal mechanism in the Republic of Uzbekistan for refunding overpaid or excessively collected customs payments and the issue arising from the absence of interest on refunded amounts. The temporary deprivation of an entrepreneur's use of funds due to a customs authority's error, unjustified additional assessment, or a subsequently revoked decision is assessed from the perspective of the time value of money. A comparative analysis of the practices of the United States, the Republic of Korea, Canada and the European Union is conducted, and a differentiated compensatory interest mechanism is proposed for Uzbekistan. In particular, the article substantiates charging compensatory interest from the date of payment or collection where the overpayment resulted from the fault of the customs authority, and, in other cases, for the period of delay in executing a refund decision, with the daily rate linked to 1/300 of the Central Bank refinancing rate.

Keywords: customs payments, overpayment, refund, compensatory interest, penalty interest, customs authority error, time value of money, Customs Code, international experience, business entity.

ORTIQChA TO‘LANGAN YoKI UNDIRILGAN BOJXONA TO‘LOVLARINI QAYTARIShDA KOMPENSASION FOIZ TO‘LASh MEXANIZMINI JORIY ETISh MASALASI

Uzoqov Alisher Abduraimovich
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya
vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining
Bojxona instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlarini qaytarishning amaldagi huquqiy mexanizmi hamda qaytarilayotgan summalarga foiz hisoblanmasligi bilan bog‘liq muammo tahlil qilingan. Bojxona organining xatosi, asossiz qo‘shimcha hisoblash yoki keyinchalik bekor qilingan qaror natijasida tadbirkor mablag‘laridan vaqtincha foydalana olmasligi pulning vaqt qiymati nuqtayi nazaridan baholangan. AQSh, Janubiy Koreya, Kanada va Yevropa Ittifoqi tajribasi qiyosiy o‘rganilib, O‘zbekiston uchun differensial kompensatsion foiz mexanizmini joriy etish taklif etilgan. Xususan, bojxona organi aybi bilan ortiqcha undirilgan mablag‘larga to‘lov (undirish) sanasidan, boshqa holatlarda esa qaytarish to‘g‘risidagi qaror ijrosi kechiktirilgan davr uchun kompensatsion foiz hisoblash, stavkani Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining har bir kalendar kun uchun 1/300 qismiga bog‘lash asoslangan.

Kalit so‘zlar: bojxona to‘lovlari, ortiqcha to‘lov, qaytarish, kompensatsion foiz, penya, bojxona organi xatosi, pulning vaqt qiymati, Bojxona kodeksi, xalqaro tajriba, tadbirkorlik subyekti.

ВОПРОС ВНЕДРЕНИЯ МЕХАНИЗМА ВЫПЛАТЫ КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПРОЦЕНТОВ ПРИ ВОЗВРАТЕ ИЗЛИШНЕ УПЛАЧЕННЫХ ИЛИ ВЗЫСКАННЫХ ТАМОЖЕННЫХ ПЛАТЕЖЕЙ

Алишер Абдураимович Узаков
старший преподаватель Таможенного института
Таможенного комитета при Министерстве
экономики и финансов Республики Узбекистан

Аннотация. В статье анализируется действующий в Республике Узбекистан правовой механизм возврата излишне уплаченных или взысканных таможенных платежей, а также проблема отсутствия начисления процентов на возвращаемые суммы. Временное лишение предпринимателя возможности пользоваться денежными средствами вследствие ошибки таможенного органа, необоснованного дополнительного начисления либо впоследствии отменённого решения рассматривается с позиции временной стоимости денег. Проведён сравнительный анализ опыта США, Республики Корея, Канады и Европейского союза и предложено внедрение в Узбекистане дифференцированного механизма компенсационных процентов. В частности, обосновано начисление компенсационных процентов с даты уплаты (взыскания) при излишнем взыскании по вине таможенного органа, а в иных случаях — за период просрочки исполнения решения о возврате, с привязкой дневной ставки к 1/300 ставки рефинансирования Центрального банка.

Ключевые слова: таможенные платежи, излишняя уплата, возврат, компенсационный процент, пеня, ошибка таможенного органа, временная стоимость денег, Таможенный кодекс, международный опыт, субъект предпринимательства.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligi ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlarini qaytarishning huquqiy asoslari, ariza berish, qaror qabul qilish va mablag‘ni to‘lovchining hisobvarag‘iga yoki dastlabki pul mablag‘lari hisobiga o‘tkazish tartibini belgilagan. 2024-yilda ushbu institut yanada takomillashtirilib, bojxona organining xatosi tufayli ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarni ustuvor tartibda qaytarish talabi kiritildi. Biroq amaldagi Bojxona kodeksining 357-moddasida qaytarilayotgan mablag‘lar uchun foiz to‘lanmasligi va summa indeksasiya qilinmasligi qatiy belgilangan. Natijada bojxona organining noto‘g‘ri hisob-kitobi, asossiz qo‘shimcha hisoblash yoki keyinchalik bekor qilingan qaror tufayli tadbirkorning mablag‘i malum vaqt davlat ixtiyorida bo‘lib turgan taqdirda ham, u puldan foydalana olmagan davr uchun hech qanday moliyaviy kompensasiya olmaydi. Ayni vaqtda to‘lovchi bojxona to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni belgilangan muddatda to‘lamasa, Bojxona kodeksining 349-moddasiga muvofiq har bir kalendar kun uchun Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biri miqdorida penya hisoblanadi [1].

Mavjud muammo shundaki, amaldagi qonunchilikda to‘lovchining kechiktirilgan bojxona qarzi uchun vaqt qiymati penya orqali hisobga olinadi, ammo bojxona organi xatosi yoki qonuniy asossiz undirish natijasida davlat ixtiyorida ortiqcha turgan to‘lovchining mablag‘i uchun simmetrik kompensasiya mexanizmi mavjud emas.

Ushbu tahlilda faqat shu bitta masala — ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlarini qaytarishda kompensasion foiz institutini joriy etish zarurati o‘rganiladi. Xorijiy tajriba sifatida AQSh, Janubiy Koreya, Kanada va Yyevropa Ittifoqi modellari tanlandi. Ular bir-biridan farq qiladi: ayrim

yurisdiksiyalar ortiqcha to‘lovning o‘zi uchun foiz to‘lasa, Yyevropa Ittifoqi foizni asosan qaytarish to‘g‘risidagi qaror o‘z vaqtida ijro etilmagan holat bilan bog‘laydi. Bu farq O‘zbekiston uchun muvozanatli huquqiy echim ishlab chiqish imkonini beradi.

Bojxona kodeksining 353-moddasiga ko‘ra, qonunchilik bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan summadan ortiq miqdorda to‘langan yoki undirilgan pul mablag‘lari ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlari hisoblanadi. Qaytarish to‘lovchining arizasi asosida yoki bojxona organining o‘zi ortiqcha to‘lov faktini aniqlaganda amalga oshirilishi mumkin. Umumiy davo muddati to‘lov yoki undirish paytidan uch yilni tashkil etadi. 354-modda ortiqcha summalarni qaytarish holatlarini qamrab oladi: bojxona qiymati yoki to‘lovlarga tuzatish kiritilishi, noto‘g‘ri hisoblash, stavkaning o‘zgarishi, imtiyozning tiklanishi, texnik xatolar va boshqa qonunda nazarda tutilgan holatlar. 2024-yil 27-fevraldagi O‘RQ–913-son Qonun bilan ushbu moddaga “bojxona organining xatosi tufayli” ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarni ustuvor tartibda qaytarish haqida alohida norma kiritilgan [1].

356-modda bo‘yicha bojxona organi ariza va zarur hujjatlar kelib tushgan kunning ertasidan boshlab o‘n ish kuni ichida qaror qabul qiladi. Qo‘shimcha tekshiruv zarur bo‘lsa, ko‘rib chiqish yana o‘n ish kunigacha uzaytirilishi mumkin. Qaytarish to‘g‘risida ijobiy qarordan keyin arizachi bilan o‘zaro hisob-kitoblarni taqqoslash dalolatnomasi tuziladi. 357-modda qaytarish yo‘llarini — bank hisobvarag‘iga, bojxona organining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga, dastlabki pul mablag‘lari hisobiga yoki boshqa bojxona majburiyati taminotiga o‘tkazishni belgilaydi. Ammo ushbu moddaning prinsipial qoidasiga ko‘ra, “ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlarining summalari qaytarilayotganda ular uchun foizlar to‘lanmaydi va qaytarilayotgan to‘lov summasi indeksasiyalanmaydi” [1].

Bu qoida ikki xil vaziyatni bir xil tartibga soladi: birinchisi — to‘lovchining o‘zi deklarasiyada xatoga yo‘l qo‘yib ortiqcha to‘lagan holat; ikkinchisi — bojxona organining xatosi, asossiz qarori yoki keyinchalik bekor qilingan qo‘shimcha hisoblash natijasida mablag‘ ortiqcha undirilgan holat. Huquqiy masuliyat nuqtai nazaridan bu holatlar bir xil emas. Ikkinchi holatda to‘lovchi mablag‘dan o‘z xohishiga zid ravishda foydalana olmay qoladi va aylanma kapitalning vaqtinchalik yo‘qotilishi yuzaga keladi.

Davlat uchun mavjud model qisqa muddatda budjet xarajatini kamaytirishi mumkin, chunki qaytarish faqat asosiy summa bilan cheklanadi. Biroq u bojxona qarorlarining sifatini oshirish uchun iqtisodiy rag‘batni kuchaytirmaydi . Agar noto‘g‘ri qo‘shimcha hisoblash bekor qilinganda davlat faqat undirilgan asosiy summani qaytarsa, qaror qabul qilishdagi moliyaviy xato qiymati budjet tizimida to‘liq aks etmaydi.

Tadbirkor uchun tasir ayniqsa yirik bojxona to‘lovlarida sezilarli. Ortiqcha undirilgan mablag‘ bir necha oy nizo, mamuriy shikoyat yoki sud jarayonida qolsa, korxona mazkur mablag‘ni tovar aylanmasi, ishlab chiqarish xomashyosi yoki bank kreditini kamaytirish uchun ishlata olmaydi. Qaytarish paytida foiz to‘lanmasligi pulning vaqt qiymatini butunlay to‘lovchining zimmasiga yuklaydi.

Bojxona organlari nuqtai nazaridan kompensasion foiz mexanizmi qarorlarning dalilliligi, bojxona qiymatini tuzatish va tovar tasnifi bo‘yicha qo‘shimcha hisoblashlarda ichki sifat nazoratini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq mexanizm chegaralanmagan holda joriy etilsa, to‘lovchining o‘zi yo‘l qo‘ygan xatolar uchun ham budjetdan foiz to‘lash xavfi paydo bo‘ladi. Shu sababli kompensasiyani ayb va kechikish sababiga qarab differensiasiya qilish zarur.

AQShning 19 U.S.C. §1505(b)–(c) normalari bojxona deklarasiyasi yakuniy hisob-kitob (liquidation yoki reliquidation) qilinganda ortiqcha depozit qilingan mablag‘ni foizi bilan birga qaytarishni belgilaydi. Foiz ortiqcha mablag‘ depozit qilingan kundan yakuniy hisob-kitob kunigacha hisoblanadi; qaytarish esa liquidation yoki reliquidationdan keyin 30 kun ichida amalga oshirilishi

kerak. Agar belgilangan summa 30 kun ichida to‘lanmasa, qoldiqqa yana foiz hisoblanishi davom etadi [3].

AQSh modelining asosiy g‘oyasi — davlat ham, importchi ham bojxona majburiyatining yakuniy miqdori aniqlanguniga qadar pulning vaqt qiymatiga nisbatan simmetrik tartibda munosabatda bo‘ladi. Bu mexanizm ortiqcha to‘lovni oddiy “qaytariladigan nominal summa” emas, balki vaqtincha davlat tasarrufida turgan moliyaviy resurs sifatida baholaydi .

Janubiy Koreya Bojxona to‘g‘risidagi qonunining 46-moddasiga muvofiq, xato yoki ortiqcha to‘langan boj, qo‘shimcha to‘lov va majburiy undirish xarajatlari qaytarilishi lozim; bojxona organi o‘zi aniqlagan ortiqcha to‘lovni to‘lovchining alohida arizasisiz ham qaytarishi shart. Qaytarish 30 kun ichida amalga oshiriladi [4].

Eng muhim jihat — Qonunning 48-moddasi “bojxona qaytarimiga qo‘shimcha to‘lov”ni nazarda tutadi. Bojxona organi qaytariladigan summaga Prezident farmonida belgilangan boshlanish sanasidan qaytarish yoki hisobga olish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kungacha belgilangan stavka bo‘yicha hisoblangan qo‘shimcha summani qo‘shadi. Amaldagi ijro qoidalarida foiz stavkasi banklarning bir yillik muddatli depozitlari o‘rtacha stavkasini hisobga olgan holda belgilanadi [4] [5].

Koreya modeli O‘zbekiston uchun ayniqsa ahamiyatli, chunki u kechiktirilgan qarz uchun foiz undirish bilan ortiqcha undirilgan mablag‘ni qaytarishda foiz to‘lashni o‘zaro mutanosib institutlar sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, avtomatik aniqlangan ortiqcha to‘lovni arizasiz qaytarish talabi mamuriy yukni kamaytiradi.

Kanadaning Customs Act 66(1)-moddasida bojxona organiga to‘langan summa keyingi aniqlash yoki qayta aniqlash natijasida haqiqiy boj miqdoridan ortiq bo‘lib chiqsa, ortiqcha summa bilan birga belgilangan stavkada foiz to‘lanishi nazarda tutilgan. Foiz mablag‘ to‘langan kundan keyingi kundan tegishli qaror qabul qilingan kungacha hisoblanadi [6].

Kanada tajribasi kompensasion foizning vazifasini jazo emas, balki to‘lovchining vaqtincha yo‘qotgan pul resursidan foydalanish imkoniyati qiymatini qoplash sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv foiz stavkasini penyadan farqli, nisbatan neytral moliyaviy indikator bilan bog‘lash imkonini beradi.

Yyevropa Ittifoqi Bojxona kodeksining 116-moddasi ehtiyotkorroq modelni qo‘llaydi. Umumiy qoida bo‘yicha bojxona bojini qaytarishning o‘zi avtomatik ravishda foiz to‘lashga olib kelmaydi. Biroq qaytarish to‘g‘risida qaror qabul qilinganidan keyin u uch oy ichida ijro etilmasa va kechikish bojxona organi nazoratidan tashqari sabablar bilan izohlanmasa, uch oylik muddat tugagan kundan mablag‘ amalda qaytarilgan kungacha foiz to‘lanadi. Foiz stavkasi Ittifoq Bojxona kodeksining 112-moddasiga muvofiq belgilanadi [2].

YI modeli davlat budjeti uchun xavfni cheklashda foydali: oddiy ortiqcha to‘lov har doim foizli majburiyatga aylanmaydi, lekin bojxona organi qaytarish to‘g‘risida qarorni o‘z vaqtida ijro etmasa, to‘lovchining moliyaviy yo‘qotishi kompensasiya qilinadi. O‘zbekiston uchun ushbu yondashuvni Koreya/AQSh modeli bilan uyg‘unlashtirish maqbul.

Jahon bojxona tashkilotining Qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konvensiyasi Bosh ilovasi 4-bobida bojxona to‘lovlarini qaytarish bo‘yicha bazaviy standartlar belgilangan. 4.18-standart ortiqcha hisoblangan to‘lovni qaytarishni, 4.21-standart qaytarish to‘g‘risida qarorni asossiz kechiktirmasdan qabul qilish va mablag‘ni tekshiruvdan keyin imkon qadar tez qaytarishni talab qiladi. 4.22-standartga ko‘ra, ortiqcha undirish bojxona organining xatosi natijasi bo‘lsa, qaytarish ustuvor tartibda amalga oshirilishi lozim [7].

O‘zbekistonning 2024-yilda 354-moddaga kiritgan “bojxona organi xatosi tufayli qaytarish — ustuvor tartibda” qoidasi Kioto konvensiyasining 4.22-standarti bilan uyg‘un. Keyingi bosqich sifatida ushbu ustuvorlikni moliyaviy masuliyat mexanizmi bilan to‘ldirish mumkin. Kioto konvensiyasi kompensasion foizni majburiy standart sifatida belgilamaydi, shuning uchun bunday institut milliy qonunchilikda davlatning o‘zi tanlaydigan yuqori darajadagi kafolat hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil O‘zbekistonda kompensasion foizni barcha qaytarish holatlariga bir xil tatbiq etish maqbul emasligini ko‘rsatadi. Agar ortiqcha to‘lov to‘lovchining o‘zi yo‘l qo‘ygan deklarasiya xatosi tufayli yuzaga kelgan va bojxona organi qonundagi muddatlarda uni qaytargan bo‘lsa, budjetdan to‘lov sanasidan boshlab foiz to‘lash etarlicha asoslangan emas. Aksincha, ortiqcha undirish bojxona organining xatosi, keyinchalik bekor qilingan qarori yoki sud/yuqori turuvchi organ tomonidan g‘ayriqonuniy deb topilgan qo‘shimcha hisoblash natijasi bo‘lsa, mablag‘dan foydalanish huquqi davlat organining harakati natijasida cheklangan bo‘ladi.

Mexanizmni ikki bosqichli qilish davlat va biznes manfaatlari o‘rtasida muvozanatni taminlaydi. Birinchi holatda — bojxona organining xatosi, asossiz qo‘shimcha hisoblash, yuqori turuvchi organ yoki sud qarori bilan bekor qilingan undirish — kompensasion foiz ortiqcha mablag‘ to‘langan yoki undirilgan kunning ertasidan amalda qaytarilgan kungacha hisoblanadi. Ikkinchi holatda — to‘lovchining o‘zi ortiqcha to‘lagan boshqa vaziyatlarda — odatda foiz hisoblanmaydi; ammo bojxona organi qaytarish to‘g‘risida ijobiy qaror qabul qilganidan keyin qonunda belgilangan ijro muddatini buzsa, foiz kechikish davri uchun hisoblanadi.

Foiz stavkasi uchun yangi mustaqil indikator yaratish o‘rniga Bojxona kodeksining 349-moddasidagi penyaga nisbatan qo‘llanilayotgan formuladan — har bir kalendar kun uchun Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1/300 qismi — foydalanish maqsadga muvofiq. Bu “to‘lovchi davlat mablag‘ini kechiktirsa — penya; davlat to‘lovchining mablag‘ini asossiz ushlab tursa — kompensasiya” prinsipida huquqiy simmetriya yaratadi. Budjet xavfini cheklash uchun kompensasion foizning umumiy summasi qaytariladigan asosiy summadan oshmasligi belgilanishi mumkin; bu ham 349-moddadagi penya chegarasiga mos.

Bojxona kodeksi 357-moddasining “foizlar to‘lanmaydi” degan amaldagi qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

“Bojxona organining xatosi, bojxona organi qarorining yuqori turuvchi bojxona organi yoki sud tomonidan bekor qilinishi yoxud qonunchilikka xilof ravishda bojxona to‘lovlari undirilishi natijasida ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlari summalari qaytarilayotganda, qaytariladigan summaga ortiqcha summa to‘langan yoki undirilgan kunning ertasidan uni qaytarish yoki hisobga olish kuniga qadar har bir kalendar kun uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasining uch yuzdan biri miqdorida kompensasion foiz hisoblanadi.

Boshqa hollarda ortiqcha to‘langan bojxona to‘lovlari summalariga foiz hisoblanmaydi. Qaytarish to‘g‘risidagi qarorda uni ijro etish muddati ko‘rsatiladi va ushbu muddat o‘zaro hisob-kitoblarni taqqoslash dalolatnomasi rasmiylashtirilgan kundan etiboran o‘n ish kunidan oshmasligi kerak. Agar bojxona organi qaytarish to‘g‘risida qabul qilingan qarorni ushbu muddatda ijro etmasa, belgilangan muddat tugagan kunning ertasidan mablag‘ amalda qaytarilgan kunga qadar ushbu qismning birinchi xatboshisida belgilangan miqdorda kompensasion foiz hisoblanadi.

To‘lovchining harakati yoki harakatsizligi tufayli qaytarish kechikkan davr uchun kompensasion foiz hisoblanmaydi. Kompensasion foizning umumiy miqdori qaytariladigan ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlari summasidan oshmasligi kerak”.

Davlat budjetiga tasir — o‘rta darajada va boshqariladigan. Taklif barcha qaytarishlarga foiz to‘lashni emas, bojxona organi aybi bilan bog‘liq yoki qaytarish qarori kechiktirib ijro etilgan holatlarni qamrab oladi. Shu sababli budjet xarajati to‘g‘ridan-to‘g‘ri bojxona mamuriyatchiligi sifatiga bog‘lanadi. Qarorlar aniq va qonuniy qabul qilinsa, qo‘shimcha xarajat minimal bo‘ladi.

Tadbirkorlik subektlariga tasir — ijobiy va yuqori ahamiyatli. Kompensasiya mablag‘dan foydalanish imkoniyati yo‘qotilishini qisman qoplaydi, bojxona nizolarida davlat va biznesning moliyaviy masuliyatini muvozanatlashtiradi hamda asossiz undirish xavfini kamaytiradi.

Bojxona organlariga tasir — qisqa muddatda axborot tizimiga kompensasion foizni avtomatik hisoblash modulini qo‘shish talab etiladi. Biroq 349-modda bo‘yicha penya har kunlik stavkaga asosan

allaqachon hisoblanayotgani sababli texnik jihatdan o‘xshash formulani qaytarish moduliga integrasiya qilish mumkin. O‘rta muddatda bu qarorlar sifatini nazorat qilish va xatolarni tahlil qilish uchun qo‘shimcha KPI vazifasini bajaradi.

Asosiy xavflar va ularni kamaytirish uchun:

- budjet xarajatlarining oshishi xavfi — foizni faqat bojxona organi xatosi/bekor qilingan qaror va qaytarish muddati buzilishi bilan chegaralash.

- to‘lovchining qaytarishni ataylab cho‘zish xavfi — to‘lovchining harakati yoki hujjatlarni kech taqdim etishi sabab bo‘lgan davrni foiz hisobidan chiqarish.

- qaysi holat “bojxona organi xatosi” ekanini baholashda nizo — qonunda aniq triggerlar: bojxona organining yozma tan olishi, yuqori turuvchi organ qarori yoki qonuniy kuchga kirgan sud hujjati bilan bog‘lash.

- axborot tizimida noto‘g‘ri hisoblash xavfi — 349-modda penya formulasi bilan bir xil bazaviy stavka va avtomatik kalendar hisobidan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston bojxona qonunchiligi ortiqcha to‘langan va undirilgan bojxona to‘lovlarini qaytarish bo‘yicha asosiy prosessual kafolatlarni shakllantirgan. Ayniqsa, 2024-yildan bojxona organi xatosi natijasida ortiqcha undirilgan summani ustuvor tartibda qaytarish normasining kiritilishi Qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konvensiyasi 4.22-standartiga mos muhim qadam bo‘ldi. Biroq 357-moddadagi foiz to‘lashni to‘liq istisno qiluvchi qoida moliyaviy kompensasiya masalasini ochiq qoldirmoqda.

AQSh va Janubiy Koreya ortiqcha to‘langan bojxona mablag‘lariga foiz qo‘shish orqali to‘lovchining puldan foydalanish huquqini iqtisodiy jihatdan tan oladi. Kanada ham ortiqcha to‘langan summaga belgilangan stavkada foiz to‘lashni nazarda tutadi. Yyevropa Ittifoqi esa budjet uchun konservativ model — qaytarish qarori o‘z vaqtida bajarilmagan holdagina foiz to‘lash —ni qo‘llaydi [2] [3] [4] [6].

O‘zbekiston uchun eng maqbul echim ushbu modellarni mexanik ko‘chirish emas, balki ularni birlashtirgan differensial mexanizmdir: bojxona organi xatosi yoki bekor qilingan qarori natijasida ortiqcha undirilgan mablag‘ uchun to‘lov sanasidan kompensasion foiz; to‘lovchining o‘zi ortiqcha to‘lagan oddiy holatda esa faqat qaytarish qarori ijrosi davlat organi tomonidan kechiktirilsa foiz to‘lash. Stavkani 349-moddadagi 1/300 qayta moliyalash stavkasiga tenglashtirish huquqiy simmetriya va hisob-kitobning soddaligini taminlaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Bojxona kodeksining 357-moddasiga kompensasion foiz institutini kiritish, bunda bojxona organi xatosi yoki bekor qilingan qaror natijasida ortiqcha undirilgan to‘lovlarga to‘lov (undirish) sanasidan, boshqa holatlarda esa qaytarish qarori ijrosi kechiktirilgan sanadan boshlab har bir kun uchun Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 1/300 qismi miqdorida foiz hisoblash taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, 20.01.2016, O‘RQ–400; 349, 353–357-moddalar (amaldagi tahrir, 2026-yil 30-avgust holatida). https://lex.uz/docs/2876354
2. Regulation (EU) No 952/2013 laying down the Union Customs Code, Article 116(6), 117; EUR-Lex. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32013R0952
3. United States Code, Title 19, §1505(b)–(d), Payment of duties and fees (laws in effect 28 August 2026). https://uscode.house.gov/view.xhtml?req=(title:19%20section:1505%20edition:prelim)
4. Republic of Korea, Customs Act, Articles 46 and 48, National Law Information Center (effective 11 August 2026). https://law.go.kr
5. Republic of Korea, Enforcement Decree of the Customs Act, Article 56 — rate for surcharges on customs refunds. https://law.go.kr

6. Canada Customs Act, section 66 — Interest on payments; Justice Laws Website. https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/C-52.6/FullText.html
7. World Customs Organization, Revised Kyoto Convention, General Annex, Chapter 4, Standards 4.18–4.24.https://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation/instrument-and-tools/conventions/pf_revised_kyoto_conv/kyoto_new/gach4.aspx?p=1